BOLALARDA EMOTSIONAL RIVOJLANISH VA UNING AHAMIYATI

Tulyaganova Dilnoza Ravshanbekovna
Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti TAFU
Shodmonova Gulsanam Oybek qizi
Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti
“Tarix va filologiya fakultetiO`zbek tili va Adabiyoti” yo’nalishi talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bolalarda emotsional rivojlanish va uning shaxs shakllanishidagi ahamiyati yoritilgan. Bolaning emotsional rivojlanishi hayotining dastlabki bosqichlaridan boshlanib, uning ijtimoiy moslashuvi hamda psixologik barqarorligiga ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa go‘daklik va ilk bolalik davrida bola o‘z his-tuyg‘ulari orqali atrof-muhit bilan munosabat o‘rnatadi. Maqolada bolalarning emotsional rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar, jumladan oila muhiti va pedagogik ta’sirlar tahlil qilinadi. Shuningdek, bolalarda emotsional intellektni rivojlantirishning ahamiyati haqida fikr yuritiladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, bolalarda ijobiy emotsiyalarni shakllantirish ularning ijtimoiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Maqolada bolalarning emotsional rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: emotsional rivojlanish, bola psixologiyasi, emotsiyalar, go‘daklik davri, ilk bolalik davri, emotsional intellekt.

ЭМОЦИОНАЛЬНОЕ РАЗВИТИЕ ДЕТЕЙ И ЕГО ЗНАЧЕНИЕ

Аннотация. В статье рассматривается эмоциональное развитие детей и его значение в формировании личности. Эмоциональное развитие начинается с раннего возраста и оказывает влияние на психологическое состояние и социальную адаптацию ребенка. В младенческом и раннем детском возрасте ребенок устанавливает связь с окружающей средой через эмоции. В работе анализируются факторы, влияющие на эмоциональное развитие детей, такие как

семейная среда и воспитание. Также рассматривается значение развития эмоционального интеллекта у детей. Результаты исследования показывают, что формирование положительных эмоций способствует гармоничному развитию ребенка. В статье представлены рекомендации по поддержке эмоционального развития детей.

Ключевые слова: эмоциональное развитие, детская психология, эмоции, младенческий возраст, раннее детство, эмоциональный интеллект.

EMOTIONAL DEVELOPMENT IN CHILDREN AND ITS IMPORTANCE

Annotation. This article discusses emotional development in children and its importance in personality formation. Emotional development begins in early childhood and influences a child's psychological well-being and social adaptation. During infancy and early childhood, children interact with the surrounding environment through emotions. The article analyzes factors influencing children's emotional development, including family environment and educational influence. The importance of developing emotional intelligence in children is also highlighted. Research results show that positive emotional experiences contribute to healthy social development.The article also provides recommendations for supporting emotional development in children.

Keywords: emotional development, child psychology, emotions, infancy, early childhood, emotional intelligence.

Kirish. Bolalik davri inson hayotidagi muhim rivojlanish bosqichlaridan biri hisoblanadi. Aynan shu davrda bolaning shaxsiyati, dunyoqarashi va emotsional holati shakllana boshlaydi. Emotsiyalar bolaning atrof-muhitni idrok etishi, boshqa insonlar bilan munosabat o‘rnatishi hamda o‘z his-tuyg‘ularini ifoda etishida muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli bolalarda emotsional rivojlanish masalasi psixologiya va pedagogika fanlarida muhim o‘rganilayotgan yo‘nalishlardan biridir. Bolaning

emotsional rivojlanishi hayotining dastlabki bosqichlaridan boshlanadi. Go‘daklik davrida bola o‘z ehtiyojlarini asosan emotsiyalar orqali ifoda etadi. Masalan, yig‘lash, kulish yoki mimik harakatlar orqali bola o‘z holatini kattalarga bildiradi. Bu jarayon bola va kattalar o‘rtasida emotsional aloqaning shakllanishiga yordam beradi. Go'daklik davridagi bolaning hayoti to‘liq kattalar bilan hamkorlikdagi emotsional munosabat bilan bog'liq bo‘lib, bola kayfiyatining yaxshi bo‘lishiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. 4-5 oyligidan boshlab, bola o'z yaqinlarini begonalardan ajrata boshlaydi. Kattalar bilan emotsional munosabat shu yoshdagi bolalarning asosiy yetakchi faoliyati bo‘lib, bola psixik taraqqiyotining asosi bo‘lib hisoblanadi. Kattalarning doimiy ravishda bola bilan birga bo'lishlariga unga o'z diqqatlarini qaratishlariga odatlanishi, uning o'yinchoqlarga nisbatan qiziqishining susayishiga olib kelishi mumkin. Tarbiyaning to'g'ri olib borilishi bolaning kattalar bilan bo‘ladigan muomala-munosabatini predmetlar, o‘yinchoqlar bilan munosabatining almashinishiga olib keladi. Kattalar yordami bilan bajariladigan barcha xatti-harakatlari bolaning kelgusi psixik rivoji uchun asos bo'ladi. Kattalarning bolaga nisbatan emotsional munosabati, ularning gaplariga bolaning o‘z diqqatini qaratishi, javob qaytarishga harakat qilishi, ba'zi so'zlarni yodida saqlab qolib, emotsiya bildirishi, diqqat, xotira, nutq va boshqa bilish jarayonlarining rivojlanishiga zamin bo‘ladi. Go'dak bola 2 oylik vaqtidan boshlab, o'z onasining yuzini va ovozini o'zgalarnikidan ajrata boshlaydi. 2-3 oylikdan boshlab esa, onasining tabassumi va kulgusiga tabassum va turli harakatlar bilan javob qaytaradi. 3-4 oyligidan boshlab, bolalar yaqinlariga o'z harakatlari bilan ko’rish, eshitish yoki gapirishni xohlayotganligini ko’rsatadilar. 8 oyligidan boshlab esa, bola o'zgacha muhit va begonalar qo'liga tushsa, o'z xavotirini yig'isi orqali namoyon etadi.

Ilk bolalik davrida esa bolalarning emotsional hayoti yanada boyiydi. Bu davrda bola quvonch, g‘azab, qo‘rquv, qiziqish kabi turli emotsiyalarni namoyon eta boshlaydi. Shuningdek, bola o‘z his-tuyg‘ularini boshqarishni ham asta-sekin

o‘rganadi. Shu sababli bu davrda bolaga beriladigan tarbiya va pedagogik yondashuvlar muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot jarayonida bolalarning emotsional rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar tahlil qilindi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, bolalarda emotsional rivojlanish ko‘p jihatdan oila muhiti va tarbiyaga bog‘liq. Ota-onaning mehr-muhabbati va e’tibori bolalarda ijobiy emotsiyalar shakllanishiga yordam beradi.

Go‘daklik davrida bolalar asosan oddiy emotsiyalarni namoyon qiladi. Masalan, quvonch, qiziqish va qo‘rquv kabi emotsiyalar yuz ifodasi orqali namoyon bo‘ladi. Ilk bolalik davrida esa bolalarda g‘azab, xursandchilik va ranjish kabi emotsiyalar yanada aniqroq ko‘rinadi.

Shuningdek, o‘yin faoliyati bolalarning emotsional rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. O‘yin jarayonida bola o‘z his-tuyg‘ularini erkin ifodalaydi va boshqa bolalar bilan muloqot qilishni o‘rganadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Bolalarning emotsional rivojlanishi ko‘plab psixolog va pedagog olimlar tomonidan o‘rganilgan. L.S. Vigotskiy bolalarning hissiy rivojlanishi ijtimoiy muhit bilan uzviy bog‘liq ekanligini ta’kidlagan [1.15]. Unga ko‘ra, bolaning his-tuyg‘ulari avvalo kattalar bilan muloqot jarayonida shakllanadi va bu bolaga emotsional qobiliyatlarni rivojlantirish imkonini beradi. Masalan, go‘daklik davrida bola onasining yuz ifodasi va ovozidan ruhiy holatni sezadi, bu esa uning ijobiy emotsiyalarini rivojlantiradi.

J. Piaje bolalarning psixologik rivojlanish bosqichlarini o‘rganib, emotsiyalar va bilish jarayonlari o‘rtasida uzviy bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatgan [2.34]. Shu nuqtai nazardan, bolaning o‘z his-tuyg‘ularini tushunishi va ifoda etishi uning kognitiv rivojlanishi bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. Ilk bolalik davrida (1–3 yosh) bola quvonch, g‘azab, qo‘rquv, qiziqish kabi emotsiyalarni yanada aniqroq ifoda eta boshlaydi va bu uning ijtimoiy munosabatlarga tayyorlanishiga yordam beradi.

D. Goleman emotsional intellekt tushunchasini kiritib, insonning o‘z his-tuyg‘ularini tushunish, boshqarish va boshqa insonlarning emotsiyalarini idrok etish qobiliyati muhim ekanligini ta’kidlagan [3.21]. Bolalik davrida emotsional intellekt bolalarning ijtimoiy moslashuvi, ruhiy barqarorligi va o‘z his-tuyg‘ularini konstruktiv ifoda etishi uchun asos bo‘ladi. Go‘daklik va ilk bolalik davrida emotsional intellekt asosan ota-ona va pedagoglarning mehr-muhabbati, e’tibor va muloqoti orqali shakllanadi.

Mahalliy olimlar, xususan M.G. Davletshin va E.G‘ G‘oziyevlar ham bolalar psixologiyasida emotsional rivojlanishning o‘rni haqida fikr bildirganlar [4.12][5.8]. Ularning tadqiqotlarida go‘daklik va ilk bolalik davrida bolalarning emotsiyalari yuz ifodasi, ovoz va muloqot orqali namoyon bo‘lishi, shuningdek, ota-onaning mehr-muhabbati va pedagogik yondashuvlar bolalar hissiyotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi qayd etilgan.

Xulosa va takliflar.

Bolalarda emotsional rivojlanish ularning shaxs sifatida shakllanishida muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa go‘daklik va ilk bolalik davrida bola emotsiyalar orqali atrof-muhit bilan munosabat o‘rnatadi.

Quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

- bolalar bilan ishlashda ijobiy emotsional muhit yaratish;
- o‘yin faoliyatidan keng foydalanish;
- ota-onalarning bolalar emotsional tarbiyasidagi rolini kuchaytirish;
- pedagoglarning bolalarning his-tuyg‘ulariga e’tibor qaratishi.

Ushbu tavsiyalar bolalarning emotsional jihatdan sog‘lom rivojlanishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Obidjonova Z.K. Kichik yoshdagi bolalarning psixologiyasi. Science and Education, 2025

2. Abzalova M.S., Shomurotov U.M., Yo'ldoshev T.A. Ilk bolalik davrining psixik rivojlanish xususiyatlari. Science, Education, Innovation, 2024.

3. Baitova A.A., Shomurotov U.M. Bolalar psixologiyasi. Tadqiqotlar.UZ, 2024.

4. Jo'rayeva K. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy-emotsional rivojlanish. MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI JURNALI, 2025.

5. Akbaraliyeva A.T., Ibodullayeva M. Bolalarda emotsional intellektni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari. Tadqiqotlar, 2026.